

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTERFAOL USULLAR ORQALI O‘QUV MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL QILISH

*KIUT Samarqand fiali boshlang‘ich  
ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**Sharipova Zarginabonu Orzikulovna**

*Tel: +998 (90) 199 08 11*

*Gmail: sharipovazargina1@gmail.com*

*Ilmiy rahbar*

**Zubaydova Nilufar**

**Annotatsiy:** *Maqolaning asosiy mazmuni boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlarning ahamiyati, ulardan foydalanish . Interfaol metodlarning bugungi kundagi ahamiyati , ushbu metodlarning mezonlari , qay tarzda olib borilishi haqida*

**Аннотация:** *Основное содержание статьи – значение интерактивных методов в начальных классах, их использование. Значение интерактивных методов сегодня, критерии этих методов, способы их проведения*

**Abstract:** *The main content of the article is the importance of interactive methods in primary classes, their use. The importance of interactive methods today, the criteria of these methods, how they are carried out*

**Kalit so’zlar:** *Interfaol metod , faollik , mezon , fikrlash, pedagogik texnalogiyalar , innovatsion usullar .*

Ta’lim sohasining takomillashgani sayin o‘quv mashg‘ulotlarida ham interfaol metodlardan foydalanish keng qo’llanilmoqda . O‘quv jarayonlarida turli xil interfaol metodlarini qöllash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi. Har bitta metodlarni darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash hamda faqat ñqituvchi emas , ular bilan birgalikda o‘quvchi ham faol bo‘lishi lozim. O‘qitishning interfaol metodlaridan foydalanayotganda ta’lim maqsadi , ta’lim oluvchining soni va imkoniyatlari , o‘quv muassasalaridagi o‘quv-moddiy sharoiti ta’limning davomiyligi , pedagoglarning mahorati hisobga olinadi.

Interfaol metod - ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarining bilimlarini o‘zlashtirishini faollashtirish , shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi . Interfaol metodlarni qo’llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari : norasmiy bahs-munozaralar o’tkazish , o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyatini , maruzalar soni kamligi , lekin seminarlar soni ko’pligi , o‘quvchilar tashabbus ko’rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishini , kichik guruh , katta guruh , sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish . Yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib , ular ta’lim tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega[1].

Interfaol metodlar turi ko’p bo‘lib , ularni dars mavzusini xususiyatlarini hamda ko’zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko’riladi. Interfaol

mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorgarliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi , bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik ,muloqotga tayyorgarlik ,o'zaro hamkorlikda ishlash , mustaqil fikrlash o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat [2].

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan davrda o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, o'z ustida ishlash ko'nikmasini hosil qilishda o'qituvchining roli katta. Bunda har bir o'qituvchining oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri yangi pedagogik texnologiyaning innovatsion usullaridan dars jarayonida o'rinni foydalanish va o'quvchilarning yakka tartibda ishlashiga erishishdir. "Tafakkur buluti" metod. Ushbu metod "klasster" metodining bir shakli hisoblanib, o'quvchilarda ixtiyoriy muammo xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalalar o'rtasidagi fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Maktab ostonasiga ilk qadam qo'yib boshlang'ich sinfga qabul qilingan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti-o'yinni siqib chiqarmasdan, undan maqsadga muvoffiq foydalanish bilan talim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi[3].

Xulosa qilib aytganda hozirgi ta'lim sohasida o'qituvchining kasbiy faoliyatida interfaol metodlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi .O'quvchilar bilan ishlash , ularning bilimlarini oshirish , ta'lim-tarbiya berish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'qituvchilarga ham qulaylik yaratadi , hamda kelajak avlod uchun qulay yo'l orqali ilm olishga yordam beradi . Shunday ekan pedagog sifatida bizlar darslarni turli xil interfaol metodlar orqali yetgazib berishga harakat qilishimiz kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://manzura90.zn.uz>
2. <https://arxiv.uz>
3. [www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)